XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-42-41-11-166-K/21 Qo‘qon shahar hokimligi

Qo‘qon shahrining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g’risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g’risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O’RQ-742 son Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g’risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O’RQ-742 son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g’risida” 2021 yil 30 dekabrdagi O’RQ-742 son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Qo‘qon shahar mahalliy budjetining 2022 yilgi daromadlari 188,8 mlrd.so‘m va xarajatlari 291,3 mlrd.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 102,5 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qo‘qon shahrining 2022 yilga shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar budjetidan 2022 yilda hududiy budjet mablag’larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meьyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg’ona viloyati bo‘yicha G’aznachilik boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Shahar mahalliy budjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun shahar budjeti zaxira jamg’armasi hajmlari 2 747,4 ming. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, viloyat, tuman va shaharlar budjetlarining zaxira jamg’armalari mablag’larini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Farg’ona viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg’armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmacligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Qarorga ko‘ra 2022 yil uchun shahar budjeti shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag’larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 2 094,0 mln. so‘mni miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq;

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag’lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg’isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig’i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig’imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig’imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig’imlardan, g’ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig’imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat budjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

yer uchastkalariga bulgan xukuklarni sotishdan tushgan pul mablaglari;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

Boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan tuman va shahar mahalliy budjetlarining boshqa tushumlari hamda budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘lig’icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig’i va alkogolь maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig’idan tushumlar 2021 yil 1 iyulь holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig’i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda50 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg’isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig’idan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda

20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig’idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig’idan tashqari) Farg’ona shahri va So‘x shahridan tashqari barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

yuridik shaxslar foydasidan soliq bo‘yicha tushumlarning faqat Farg’ona

shahrida 50 foizi o‘tkaziladi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlag’i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig’idan tushumlarningbarcha shahar va tumanlarda

50 foizi;

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Rasulov), moliya bo‘limi (Mamadjonov), Davlat soliq inspektsiyasi (Abdullaev) shahar hokimligi bilan birgalikda 2022 yilgi mahalliy budjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13. Belgilansinki:

shahar hokimligi, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar tomonidan 2022 yilda budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Shahar davlat soliq inspektsiyasi (Abdullaev) ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

Yer va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

15. Shahar davlat soliq inspektsiyasi (Axmadaliev), Kadastr agentligi shahar bo‘limi (Mamajonov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig’ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

16. Majburiy ijro byurosi Qo‘qon shahri bo‘limi, shahar davlat soliq inspektsiyasi (Abdullaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Meliqo‘ziev), shahar hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

18. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 5-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog’liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag’larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari shahar hokimligining faoliyatiga bog’liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag’larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, shahar

hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g’risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

Shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, shahar hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

19. Shahar budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g’risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan shahar hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Shahar budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi belgilab qo‘yilsin.

20. Shahar hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag’lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

21. Shahar hokimligi, budjet mablag’lari taqsimlovchilari hamda mas’ul bo‘lim va tashkilotlar:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruktsiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g’risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

22. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Rasulov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, shahar hokimligi, tegishli bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari:

Budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy budjet mablag’lari taqsimlovchilarning budjet mablag’laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

23. Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Usmonov**

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-К/21-сон қарорига
1-илова

Қўқон шаҳар маҳаллий бюджетининг 2022 йилги асосий даромад кўрсаткичлари тўғрисида
МАЪЛУМОТ

минг сўм

№	Даромад тури	Қўқон шаҳри
	Жами даромадлар	**188 860 900**
I.	**Тартибга солувчи даромадлар**	**83 729 000**
	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	83 729 000
	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**63 536 900**
	Тўлиқ туман ва шаҳарларга бириктирилган	**43 791 000**
1	Корхоналар айланмасидан солиқ	22 139 000
2	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	7 789 000
3	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	7 539 000

5	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	5 896 000
4	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	428 000
	Вилоят ва туман (шаҳар)лар бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**19 745 900**
1	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	6 002 400
2	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	6 599 000
3	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи	6 175 000
4	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	969 500
III.	**Маҳаллий бюджет даромадлари прогнози**	**147 265 900**
IV.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**41 595 000**
	Аҳоли сони (минг киши)	*258*
1	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	15 743 000
2	Мобиль алоқа хизматини кўрсатганлик учун акциз солиғи	8 969 000
3	Тамаки маҳсулотлари бўйича акциз солиғи	16 883 000
	ТРАНСФЕРТЛАР	**102 500 237**

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-К/21-сон қарорига
2-илова

Қўқон шаҳар маҳаллий бюджетининг 2022 йилги асосий харажатларининг чекланган миқдорлари
МАЪЛУМОТ

Т/р	Туманлар ва шаҳарлар бюджетларидан маблағ олувчи ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчилар номи	Сумма (минг сўм)
1	Мактабгача таълим бўлими	17 565 288,0
2	Халқ таълими бўлими	10 191 710,0
3	Тиббиёт бирлашмаси	141 951 419,0
4	Маданият бўлими	14 237 113,0
5	Жисмоний тарбия ва спорт бўлими	4 927 253,0
6	Бандлик ва меҳнат муносабатлари бўлими	750 912,0
7	Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими	635 314,0

8	Ободонлаштириш бошқармаси	29 087 583,0
9	Молия бўлими	845 835,0
10	Махалла ва оилани қўллаб қувватлаш бўлими	7 306 012,0
11	Ҳокимият	63 862 698,0
	ЖАМИ:	**291 361 137,0**

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-К/21-сон қарорига
3-илова

2022 йил учун Қўқон шаҳар бюджет даромадларининг маҳаллий бюджетлар ўртасида тақсимланиши бўйича ажратма меъёрлари

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Солиқ тури	тақсимланиш миқдори
1	Корхоналар айланмасидан солиқ	100
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	50
3	Якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	100
4	Бензин, дизел ёқилғиси ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиқ	20
5	Жисмоний шахслар мол-мулкига солинадиган солиқ	100
6	Жисмоний шахслардан ер солиғи	100
7	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	50

8	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	100
9	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	50
10	Юридик шахслар ер солиғи	50
11	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	50

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-К/21-сон қарорига
4-илова

Шаҳар маҳаллий бюджетининг 2022 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

№	Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
ЖАМИ		**188 860 900,0**	**291 361 137,0**
1	Қўқон шаҳри	188 860 900,0	291 361 137,0

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-К/21-сон қарорига
5-илова

Шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларининг 2022 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

№	Шаҳар ва туманлар	Тартибга солувчи трансферт миқдори жами
1	Қўқон шаҳар	102 500 237

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-K/21-сон қарорига
6-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

минг сўмда

Т/р	Худуд номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 га учун)
1	Қўқон ш	Давронбек	1,30	49 010
2	Қўқон ш	Шалдирамоқ	1,00	37 700
3	Қўқон ш	Толзор	1,30	49 010
4	Қўқон ш	Ғиштли масжид	1,30	49 010
5	Қўқон ш	Вақф чорсу	1,00	37 700
6	Қўқон ш	Туғонбоши	1,00	37 700
7	Қўқон ш	Ялонғоч ота	1,00	37 700
8	Қўқон ш	Янги чорсу	1,10	41 470
9	Қўқон ш	Қаландархона	1,00	37 700
10	Қўқон ш	Ёғ бозори	1,00	37 700
11	Қўқон ш	Чархини кўприги	1,00	37 700
12	Қўқон ш	Ноиб кўприги	1,00	37 700
13	Қўқон ш	Исфара гузар	1,30	49 010
14	Қўқон ш	Қаймоқли гузар	1,10	41 470
15	Қўқон ш	Мисгарлик	1,30	49 010
16	Қўқон ш	Дегрезлик	1,20	45 240
17	Қўқон ш	Калвак	1,00	37 700
18	Қўқон ш	Нонвойлик гузар	1,00	37 700
19	Қўқон ш	Шайхон	1,30	49 010
20	Қўқон ш	Ғишт кўприк	1,00	37 700
21	Қўқон ш	Ғалчасой	1,00	37 700
22	Қўқон ш	Парпашабоф	1,00	37 700
23	Қўқон ш	Артизон бўйи	1,10	41 470
24	Қўқон ш	Темир йўлчи	1,00	37 700
25	Қўқон ш	Қипчоқ ариқ	1,10	41 470
26	Қўқон ш	Булоқбоши	1,10	41 470
27	Қўқон ш	Ғозийоғлиқ	1,00	37 700
28	Қўқон ш	Аччиққўл	1,00	37 700
29	Қўқон ш	Чорчинор	1,00	37 700

30	Қўқон ш	Саодат	1,00	37 700
31	Қўқон ш	Исломобод	1,00	37 700
32	Қўқон ш	Қуш чинор	1,00	37 700
33	Қўқон ш	Собир Абдулла	1,30	49 010
34	Қўқон ш	Марғилон Дарвоза	1,30	49 010
35	Қўқон ш	Арзиктепа	1,00	37 700
36	Қўқон ш	Алишер Навоий	1,30	49 010
37	Қўқон ш	Галабаққоллик	1,00	37 700
38	Қўқон ш	Тўхлимерган	1,00	37 700
39	Қўқон ш	Оқ олтин	1,30	49 010
40	Қўқон ш	Нурафшон	1,00	37 700
41	Қўқон ш	Урганжибоғ	1,00	37 700
42	Қўқон ш	Ат Термизий	1,00	37 700
43	Қўқон ш	Навбахор	1,30	49 010
44	Қўқон ш	Авғонбоғ	1,00	37 700
45	Қўқон ш	Ашурали Зохирий	1,00	37 700
46	Қўқон ш	Ўрмонбоғ	1,00	37 700
47	Қўқон ш	Райхон	1,00	37 700
48	Қўқон ш	Истиқлол	1,00	37 700
49	Қўқон ш	Обод	1,00	37 700
50	Қўқон ш	Мустақиллик	1,00	37 700
51	Қўқон ш	Зилол	1,00	37 700
52	Қўқон ш	Янги обод	1,00	37 700
53	Қўқон ш	Бўстон	1,00	37 700
54	Қўқон ш	Ширин	1,00	37 700
55	Қўқон ш	Истиқбол	1,00	37 700
56	Қўқон ш	Наврўз	1,00	37 700
57	Қўқон ш	Дўстлик	1,00	37 700
58	Қўқон ш	Бунёдкор	1,00	37 700
59	Қўқон ш	Олтин водий	1,00	37 700
60	Қўқон ш	Уста бозор	1,10	41 470
61	Қўқон ш	Муқумий шахарча	1,00	37 700
62	Қўқон ш	Шикорбеги	1,00	37 700
63	Қўқон ш	Қудуқлик	1,30	49 010
64	Қўқон ш	Саодат	1,10	41 470
65	Қўқон ш	Сунбула	1,30	49 010
66	Қўқон ш	Амир Темур	1,00	37 700
67	Қўқон ш	Узумзор	1,00	37 700
68	Қўқон ш	Туркистон	1,00	37 700

Халқ депутатлари Қўқон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-41-11-166-K/21-сон қарорига
7-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

Т/р	Шаҳар ва туман номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 кв учун)
1	Қўқон ш	Давронбек	1,00	312,0
2	Қўқон ш	Шалдирамоқ	1,00	312,0
3	Қўқон ш	Толзор	1,00	312,0
4	Қўқон ш	Ғиштли масжид	1,00	312,0
5	Қўқон ш	Вақф чорсу	1,00	312,0
6	Қўқон ш	Туғонбоши	0,80	249,6
7	Қўқон ш	Ялонғоч ота	0,90	280,8
8	Қўқон ш	Янги чорсу	0,80	249,6
9	Қўқон ш	Қаландархона	0,80	249,6
10	Қўқон ш	Ёғ бозори	0,80	249,6
11	Қўқон ш	Чархини кўприги	0,80	249,6
12	Қўқон ш	Ноиб кўприги	0,80	249,6
13	Қўқон ш	Исфара гузар	1,00	312,0
14	Қўқон ш	Қаймоқли гузар	1,00	312,0
15	Қўқон ш	Мисгарлик	1,00	312,0
16	Қўқон ш	Дегрезлик	1,20	374,4
17	Қўқон ш	Калвак	0,90	280,8
18	Қўқон ш	Нонвойлик гузар	0,80	249,6
19	Қўқон ш	Шайхон	1,20	374,4
20	Қўқон ш	Ғишт кўприк	1,00	312,0
21	Қўқон ш	Ғалчасой	0,90	280,8
22	Қўқон ш	Парпашабоф	0,90	280,8
23	Қўқон ш	Артизон бўйи	1,10	343,2
24	Қўқон ш	Темир йўлчи	0,80	249,6
25	Қўқон ш	Қипчоқ арик	1,00	312,0
26	Қўқон ш	Булоқбоши	1,00	312,0
27	Қўқон ш	Ғозийоғлиқ	0,70	218,4
28	Қўқон ш	Аччиққўл	0,70	218,4

29	Қўқон ш	Чорчинор	0,70	218,4
30	Қўқон ш	Саодат	1,00	312,0
31	Қўқон ш	Исломобод	0,70	218,4
32	Қўқон ш	Қуш чинор	1,20	374,4
33	Қўқон ш	Собир Абдулла	1,30	405,6
34	Қўқон ш	Марғилон Дарвоза	1,30	405,6
35	Қўқон ш	Арзиктепа	0,70	218,4
36	Қўқон ш	Алишер Навоий	1,30	405,6
37	Қўқон ш	Галабаққоллик	0,80	249,6
38	Қўқон ш	Тўхлимерган	0,70	218,4
39	Қўқон ш	Оқ олтин	0,70	218,4
40	Қўқон ш	Нурафшон	0,70	218,4
41	Қўқон ш	Урганжибоғ	1,30	405,6
42	Қўқон ш	Ат Термизий	1,30	405,6
43	Қўқон ш	Навбахор	1,30	405,6
44	Қўқон ш	Авғонбоғ	0,80	249,6
45	Қўқон ш	Ашурали Зохирий	0,80	249,6
46	Қўқон ш	Ўрмонбоғ	1,30	405,6
47	Қўқон ш	Райхон	1,00	312,0
48	Қўқон ш	Истиқлол	1,00	312,0
49	Қўқон ш	Обод	1,00	312,0
50	Қўқон ш	Мустақиллик	1,00	312,0
51	Қўқон ш	Зилол	1,00	312,0
52	Қўқон ш	Янги обод	1,00	312,0
53	Қўқон ш	Бўстон	1,00	312,0
54	Қўқон ш	Ширин	1,00	312,0
55	Қўқон ш	Истиқбол	1,00	312,0
56	Қўқон ш	Наврўз	1,00	312,0
57	Қўқон ш	Дўстлик	1,00	312,0
58	Қўқон ш	Бунёдкор	1,00	312,0
59	Қўқон ш	Олтин водий	1,00	312,0
60	Қўқон ш	Уста бозор	1,00	312,0
61	Қўқон ш	Мукумий шахарча	0,70	218,4
62	Қўқон ш	Шикорбеги	0,70	218,4
63	Қўқон ш	Қудуқлик	1,00	312,0
64	Қўқон ш	Саодат	1,30	405,6
65	Қўқон ш	Сунбула	1,30	405,6
66	Қўқон ш	Амир Темур	0,70	218,4
67	Қўқон ш	Узумзор	0,70	218,4
68	Қўқон ш	Туркистон	1,00	312,0